

**TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA OPERATSIYALARI  
HISOBI VA AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH**

*Ilhom Ashirboyev Iskandar o'g'li*

*Tel: +998900940680*

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqola valyuta operatsiyalari valyuta qimmatliklariga bo'lgan mulk huquqining va boshqa huquqlarning o'tishi bilan bog'liq operatsiyalar, valyuta qimmatliklaridan to'lov vositasi sifatida foydalanish, valyuta qimmatliklarini O'zbekistonga olib kirish, jo'natish va o'tkazish, shuningdek O'zbekistondan olib chiqish, jo'natish va o'tkazish, rezidentlar va norezidentlar o'rtasida O'zbekiston valyutasidagi operatsiyalar. Valyuta operatsiyalari ichki va xalqaro (transchegaraviy) operatsiyalarga bo'linadi. Ichki valyuta operatsiyalari O'zbekiston hududida o'tkaziladigan operatsiyalardir. Xalqaro (transchegaraviy) valyuta operatsiyalari joriy xalqaro operatsiyalarga va kapital harakati (kapital o'tkazmalari) operatsiyalariga bo'linadi. Ma'lumot uchun, kripto-birja ishtirokchilari bo'lgan norezident yuridik shaxslarning chet el valyutasidagi hisobvaraqlariga ularning xorijdagi hisobvaraqlaridan o'tkazilgant mablag'lar hamda kripto-birjada kripto-aktivlarni sotishdan tushgan mablag'lar kiritilishi mumkin. Ushbu mablag'lar kripto-aktivlarni sotib olish uchun kripto-birjaga hamda mazkur norezident yuridik shaxslarning xorijdagi (mablag'lar kelib tushgan davlatdagi) o'z hisobvaraqlariga o'tkazilishi mumkin. Kripto-birja ishtirokchilari bo'lgan norezident yuridik shaxslarning hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'lardan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas. Tijorat banklari, mazkur hisobvaraqlar orqali o'tkaziladigan operatsiyalarni amalga oshirishda mavjud risklarni baholagan holda, ushbu operatsiyalar jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari doirasida bo'lishini ta'minlaydi.[1]

**Kalit so'zlar:** *tijorat banklari, valyuta operatsiyala, bank daromadlari, bank xarajatlari, bank auditi, moliyaviy natijalar, auditni rejalashtirish, auditorlik.*

**KIRISH**

Respublikamiz tijorat banklarida chet el valyutasi hisobini shakllantirish uni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va shu orqali banklarda chet el valyutalari hisobini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Tijorat banklarida chet el valyutasi hisobini takomillashtirish asosida buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etish, yuritish hamda moliyaviy hisobotlarni o'z vaqtida tuzish va taqdim etishning uslubiyotini

yaratilishiga olib keladi. Bu esa tijorat banklari moliyaviy holati to‘g‘risidagi axborotlarning ishonchliligini yanada ortishiga va investitsiyalarni keng jalb qilishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada tijorat banklarda chet el valyutasi bilan amalga oshirilgan valyuta operatsiyalari hisobini to‘g‘ri tashkil etish va takomillashtirish metodikasini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar bayoni keltirilgan.[2] “Qayta tayyorlash va malaka oshirish fakulteti” dekanati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 17-maydagi 180-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasining faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 15-apreldagi 220-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi, 2018 yil 30 iyuldagi 599-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasiga tinglovchilarni qabul qilish to‘g‘risida”gi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-oktabrdagi PQ-4503-sonli “Bank-moliya sohasida kadrlar tayyorlash choar-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlariga asosan tashkil etilgan. “Qayta tayyorlash va malaka oshirish fakulteti” tinglovchilarga mamlakatda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya qilish, davlat va jamiyat boshqaruvi sohasida xalqaro standartlar va talablarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan ta’lim dasturlari asosida davlat va jamiyat boshqaruvi bo‘yicha yetarli bilim, ko‘nikma va malakalarni muntazam ravishda yetkazib borishdan iborat.[3]

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI**

Pul mablag‘lari va valyuta operatsiyalari hisobining me‘yoriy-huquqiy asoslaridan biri – bu O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida (yangi tahrir)”gi qonunidir<sup>13</sup>. Ushbu Qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2016 yil 3 martda qabul qilingan va Senati tomonidan 2016 yil 31 martda ma‘qullangan. “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonunning 4-moddasiga muvofiq, buxgalteriya hisobi barcha xo‘jalik operatsiyalarini yaxlit, uzluksiz, hujjatlar asosida hisobga olish yo‘li bilan buxgalteriya axborotini yig‘ish, qayd etish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidan, shuningdek, uning asosida moliyaviy va boshqa hisobotni tuzishdan iboratdir.[4]

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Korxonalar rahbari pul mablag‘larining kassada but saqlanishini ta‘minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishi lozim. Kassa uchun keragicha jihozlangan alohida xona, seyf o‘rnatilishi zarur. Ish oxirida kassir kassa seyfini kalit bilan bekitishi va surg‘uchli muhr bilan muhrlashi shart. Seyf kaliti va muhr kassirda saqlanadi, kalitning boshqa nusxalari kassir muhrlagan paketlar, qutichalarda korxonalar rahbarida turadi. Korxonalar kassasiga nakd pullarni qabul qilish KO-1 shaklidagi kassa kiritim orderi bilan amalga oshiriladi.[5] U ikki qismdan iborat: kiritim orderi (blankning chap qismi) va unga oid kvitansiya (o‘ng qismi). Kassa kiritim orderini buxgalteriya yozib beradi va bosh buxgalter yoki u vakolat bergan shaxs tomonidan imzolandi. Kiritim orderini kassaga

topshirishdan oldin, albatta, kirim va chiqim hujjatlarini qayd qilish jurnalida (KO-3 yoki KO-4 shakli) qayd qilinishi lozim. Jurnal ikki qismmdan iborat: chap qismida kassaga kelib tushgan pul mablag‘lari, o‘ng qismida sarflangan pul mablag‘lari qayd qilinadi.[6]

### **XULOSA**

Shu bilan birga, qarorda valyuta bozorini rivojlantirishning keyingi bosqichlarida valyuta operatsiyalari bo‘yicha savdo ishtirokchilarining umume’tirof etilgan eng namunali amaliyotlarni o‘z ichiga olgan “**Etika kodeksi**”ning qabul qilinishi hamda tijorat banklarining “**market-meykerlar**” sifatida ishtirokini yo‘lga qo‘yish maqsadida ularga beriladigan imtiyoz va majburiyatlarni o‘zida aks ettiruvchi “Market-meykerlik faoliyati to‘g‘risida”gi me‘yoriy hujjat ishlab chiqilishi ko‘zda tutilgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/09/18/comment/>
2. <https://asaka.alex-its.uz/media/files/articles/448/1522046021.7604.pdf>
3. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/iqtisodiyot/tijorat-banklarining-valyuta-operatsiyalari>
4. <https://kun.uz/uz/82260599#>
5. <https://lex.uz/docs/-823313?ONDATE=02.11.2017>
6. <https://book.oxu.uz/web/kitoblar/152372602.pdf>